

elita<sup>uz</sup>

Elektron Ilmiy  
Jurnal

No.1 (2)  
**2024**

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> ELEKTRON TIJORATNING MOHIYATI, RIVOJLANISH TARIXI VA MUAMMOLAR .....	3-11
<i>Olimjonova Hulkar To'lqin qizi</i> SUG'URTA KOMPANIYALARINING MILLIY FOND BOZORIDAGI FAOL ISHTIROKINI RAG'BATLANTIRUVCHI HUQUQIY MEXANIZMLAR .....	12-20
<i>Salimov Islombek Bobir o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATDA INTERNET-REKLAMA FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHDAGI MUAMMOLAR. ILMIY TAHLIL .....	21-27
<i>Xudoyorov Fayzullo Sayfulla o'g'li</i> MUSHARAKA VA MUDORABA: ISLOMIY MOLIYA VOSITALARI VA ULARNING O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI ODDIY SHIRKAT SHARTNOMASIGA INTEGRATSIYASI .....	28-37
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> METAVERSE PLATFORMALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING GLOBAL STANDARTI VA XALQARO HAMKORLIK .....	38-47
<i>Razzaqova E'zoza Yusup qizi</i> RAQOBAT HUQUQIDA USTUN MAVQE TUSHUNCHASI .....	48-56
<i>Allanazarova Xavajon Axmedovna</i> DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING YURIDIK SHAXSLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI .....	57-64
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> FUQAROLIK VA IQTISODIY PROTSESSDA SHAFFOFLIK MUAMMOLARI .....	65-77

## DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR TUSHUNCHASI VA ULARNING YURIDIK SHAXSLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNINI

Allanazarova Xavajon Axmedovna | [xavajonallanazarova@gmail.com](mailto:xavajonallanazarova@gmail.com)

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada davlat ishtirokidagi korxonalar tushunchasi, o'ziga xos xususiyatlari va ularning yuridik shaxslar tizimida tutgan institutsional o'rnini yoritilib, bunda O'zbekistonda ushbu turdagi korxonalarining shakllanish tarixi; ularning iqtisodiy progressga ko'rsatayotgan ta'siri yoritiladi. Shuningdek, davlat ishtirokidagi korxonalarda maxsus vakolatli organlar faoliyatiga baho berilib, ularning tashkil etilishi faoliyati o'rganilgan. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat korxonalarining rivojlanish istiqbollari tahlil qilinib, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va milliy manfaatlarni amalga oshirishni ta'minlash vositasi sifatida davlat korxonalarining ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** davlat ishtirokidagi korxonalar, davlat korxonalarini, davlat mulki, yuridik shaxslar, huquqiy tartibga solish, iqtisodiy siyosat, strategik tarmoqlar, raqobat, davlat tomonidan tartibga solish.

---

## THE CONCEPT OF STATE-OWNED ENTERPRISES AND THEIR ROLE IN THE SYSTEM OF LEGAL ENTITIES

Allanazarova Xavajon Akhmedovna

*Master's degree student of Tashkent State University of Law*

**Abstract.** The article describes the concept of enterprises with state participation, their specifics and institutional role in the system of legal entities, including the history of the formation of enterprises of this type in Uzbekistan; their influence on economic progress is emphasized. An assessment of the activities of special authorized bodies at state enterprises is also given and their organizational activities are studied. The prospects for the development of state-owned enterprises in the conditions of the market economy of Uzbekistan are analyzed, and the importance of state-owned enterprises as a means of ensuring

the implementation of national interests and regulation of the economy by the state is substantiated.

**Key words:** state enterprises, state property, legal entities, legal regulation, economic policy, strategic industries, competition, government regulation.

---

## ПОНЯТИЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И ИХ РОЛЬ В СИСТЕМЕ ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ

Алланазарова Хаважон Ахмедовна

Студент магистратуры Ташкентского государственного юридического университета.

**Аннотация.** В статье описано понятие предприятий с государственным участием, их специфика и институциональная роль в системе юридических лиц, в том числе история становления предприятий этого типа в Узбекистане; подчеркивается их влияние на экономический прогресс. Также дана оценка деятельности специальных уполномоченных органов на государственных предприятиях и изучена их организационная деятельность. Проанализированы перспективы развития государственных предприятий в условиях рыночной экономики Узбекистана, а также обосновано значение государственных предприятий как средства обеспечения реализации национальных интересов и регулирования экономики со стороны государства.

**Ключевые слова:** государственные предприятия, государственная собственность, юридические лица, правовое регулирование, экономическая политика, стратегические отрасли, конкуренция, государственное регулирование.

---

Davlat ishtirokidagi korxonalarining faoliyat ko'lamini Yangi O'zbekiston iqtisodiyoti uchun favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. 2023-yil yakunlari bo'yicha mamlakat yalpi ichki mahsulotining qariyb 50 foizi, tashqi savdo aylanmasining 20 foizi, tijorat banklari aktivlarining 80 foizdan ortig'i davlat egaligidagi korxonalar tomonidan yaratilgan. Davlat ishtirokidagi korxonalar to'laydigan soliqlar budjet tushumlarining ham katta qismini ta'minlab beradi.

O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarni tadbirkorlik subyektlarining keng tarqalgan shakllari – aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat va unitar korxonalar orasida uchratish mumkin.

Shu bilan birga, aholi bandligini ta'minlashda davlat sektorining ulushi 6 foiz atrofida bo'lib, aholi bandligini ta'minlashda xususiy sektorning o'рни kattaligini ko'rsatmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida hukumatlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri shubhasiz iqtisodiyotni transformatsiya qilish hisoblanadi.

Davlat ishtirokidagi va xususiy korxonalar teng imkoniyatlar yaratish hamda davlat korxonalarini xususiylashtirish bozor munosabatlarini shakllantirishning zaruriy talabi sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi Qonunida davlat ishtirokidagi korxonalar tushunchasiga ta'rif berilib, xususan unda quyidagicha bayon etiladi:

**Davlat ishtirokidagi korxon**a — ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori ellik foizdan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyati yoxud ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori xo'jalik jamiyatining boshqa har bir aksiyadori (ishtirokchisi) ulushiga nisbatan ko'p bo'lgan xo'jalik jamiyati, shuningdek davlat unitar korxonasi[1].

"Raqobat to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, **davlat ishtirokidagi korxon**a xo'jalik faoliyatini amalga oshiradigan, ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori 25 foizdan ortiq bo'lgan yuridik shaxs, shuningdek davlat unitar korxonasi yoki o'ziga xo'jalik faoliyatini amalga oshirish huquqi berilgan davlat muassasasidir[2].

Davlat ishtirokidagi korxon tushunchasiga nisbatan olimlar tomonidan ham tegishli ta'riflar berilgan bo'lib, xususan A.M.Kushnir tomonidan ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan va korxon boshqaruviga ta'sir o'tkazish imkonini beradigan boshqa huquqlarga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyekt davlat ishtirokidagi korxonadir deyiladi.[3]

R.R.Xabibulinga ko'ra, ustav kapitalining bir qismi davlatga tegishli bo'lgan va davlat korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan tijorat tashkiloti davlat ishtirokidagi korxonadir[4].

A.N.Shelestova tomonidan ham davlat ishtirokidagi korxonalar ta'rif berilib, bunda ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan va (yoki) uning faoliyatiga

ta'sir ko'rsatish imkonini beradigan huquqlarga ega bo'lgan unitar korxonalar yoki aksiyadorlik jamiyati davlat ishtirokidagi korxonadir deyiladi[5].

“Davlat ishtirokidagi korxonalar” tushunchasi xorijiy adabiyotlarda uchramaydi. Ushbu termin milliy qonunchiligimizga xos bo'lib, “davlat korxonasi” tushunchasiga nisbatan kengroq qamrovga ega.

Xalqaro tashkilotlar, chet el mamlakatlari tomonidan “davlat korxonasi” tushunchasining mazmunini yoritishda Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan davlat savdo korxonasi sifatida berilgan ta'rifdan foydalaniladi hamda fikrimizcha, uni “umume'tirof etilgan ta'rif” sifatida ko'rish mumkin. Unga ko'ra, davlat savdo korxonasi sifatida:[6]

- to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita korxonaning ustav kapitalida 50 foiz yoki undan ortiq ulushga davlat egalik qilsa;
- hukumat idoralarida to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita korxonalar direktorlar kengashi yoki shunga tenglashtirilgan boshqaruv organi a'zolarining yarmidan ortig'ini tayinlash vakolati mavjud bo'lsa;
- hukumatning korxonalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirsa yoki unda nazoratni amalga oshirish imkoniyati bo'lsa;
- davlat tomonidan korxonaga muayyan monopol huquqlar va eksklyuziv vakolatlar berilgan bo'lsa;
- soliqlar bo'yicha va boshqa turli imtiyozlar berilgan korxonalar hamda buning natijasida korxonalar bozordagi savdo hajmiga va uning yo'nalishlariga ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lgan toifadagi korxonalar tavsiflanadi.

Ko'rinib turibdiki, JST metodologiyasi bo'yicha davlat korxonasi sifatida toifalanadigan korxonalarining ko'lamini ancha keng bo'lib, faqatgina korxonalar ustav kapitalida davlat ulushi mavjud yoki mavjud emasligi bilan cheklanib qolmaydi.

“Davlat korxonasi” tushunchasiga xalqaro amaliyotda keng qo'llanayotgan ta'rif IHRT va Davlat sektorida xalqaro hisobot standartlari (IPSAS) tashkiloti tomonidan berilgan bo'lib, unga ko'ra – davlat korxonasi to'liq, majoritar va hal qiluvchi minoritar egalik ulushi orqali davlat hal qiluvchi nazoratga ega bo'lgan korxonalar hisoblanadi[7].

Shu bilan birga, har bir davlatning qonunchiligi bilan davlat korxonasi ta'rif, belgilari va huquqiy maqomi o'rnatiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat korxonalarini to'g'risida”gi Nizomda “davlat korxonasi - davlat

mulkidagi, o'ziga tezkorlik bilan boshqarish uchun berilgan mulk negizida tashkil etilgan davlat unitar korxonasi shaklidagi tijorat tashkilotidir, u o'ziga birkirilgan mulkdan qonunda belgilangan doirada, o'z faoliyati maqsadlariga, mulkdorning (yoki uning topshirig'iga ko'ra u vakolat bergan davlat organi - muassisning) topshiriqlariga hamda egalik qilish huquqidagi mulkning maqsadiga muvofiq mulkdan foydalanishni va uni tasarruf etishni amalga oshiradi" deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi "davlat korxonasi" tushunchasining mavjud ta'rifi korxonaning faqat mulkka egalik nuqtai-nazaridan davlatga tegishlilikini aks ettiradi. Haqiqatda davlat egaligida bo'lgan tijorat subyektlarining ko'lami va mohiyatini qamrab olmaydi.

Shu bilan birga, ta'rifdan ko'rish mumkinki, Davlat korxonalari to'g'risidagi nizomda, davlat korxonasi sifatida uning shakllaridan biri bo'lgan davlat unitar korxonalari nazarda tutilmoqda. Vaholanki, davlat korxonalari aksiyadorlik jamiyatlari, mas'uliyati cheklangan jamiyat, shirkat va/yoki boshqa tashkiliy huquqiy shakllarda faoliyat olib borishi mumkin. Jumladan, O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining (2100 ta) katta ulushi (51%) mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida (1071 ta) tashkil etilgan va faoliyat olib boradi[8].

Ushbu o'rinda davlat ishtirokidagi korxonalarga xos bo'lgan davlat mulki hamda davlat ulushi tushunchalariga ta'rif berib o'tsak.

Davlat mulki respublika mulkidan va ma'muriy-hududiy tuzilmalarning mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo'lgan ommaviy mulk bo'lsa, davlat ulushi xo'jalik jamiyatlarining ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) davlat boshqaruvi organlariga, mahalliy davlat hokimiyati organlariga, davlat unitar korxonalariga, davlat muassasalariga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga tegishli bo'lgan aksiyalar yoki ulushlardir.

Yuqoridagilarga asosan aytish mumkinki, davlat ishtirokidagi korxonaning o'ziga xosligi quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

- Ustav kapitalida davlat ulushining mavjudligi va davlat ushbu korxonaning faoliyatiga ta'sir o'tkaza olishi;
- tijorat va davlat maqsadlarining kombinatsiyasi: davlat ishtirokidagi korxonalar nafaqat foyda olish balki, davlat tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish, masalan, milliy xavfsizlikni ta'minlash, strategik rivojlanish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga ham alohida ahamiyat qaratishi lozim;

- ko'p qirrali maqsadlar: xususiy korxonalaridan farqli o'laroq, davlat korxonalarining maqsadlari to'g'ridan-to'g'ri foydani maksimallashtirishga emas, ko'p qirrali maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi;
- boshqaruv usuli: davlat ishtirokidagi korxonalarda davlat asosiy figurant sifatida namoyon bo'lib, boshqaruvga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.
- Xususiylashtirish imkoniyatining mavjudligini ham davlat ishtirokidagi korxonalaridagi o'ziga xos xususiyatdir.

O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalar uzoq va murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgan bo'lib, bu ham bo'lsa mamlakatning sovet davridagi rejali iqtisodiyotdan bozor tizimiga o'tishi bilan bog'liq bo'lgan.

### **1. Sovet davri (1925-1991)**

Rejali iqtisodiyot: Sovet davrida O'zbekiston iqtisodiyoti markazlashgan tarzda rejalangan edi. Barcha korxonalar, shu jumladan, davlat korxonalari ham davlat mulki bo'lib, markazdan nazorat qilinardi.

Davlat korxonalarining dominant roli: davlat korxonalari butun aholi uchun mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan iqtisodiyotda ustun rol o'ynagan.

Raqobatning yo'qligi: raqobatning yetishmasligi tufayli davlat korxonalari har doim ham samarali emas edi va past sifatli tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish ehtimoli yuqori edi.

### **2. O'tish davri (1991-1995)**

SSSRning parchalanishi: 1991-yilda Sovet Ittifoqining parchalanishi markazlashtirilgan rejali iqtisodiyotning qulashiga olib keldi.

Xususiylashtirish: 1991 - 1995-yillarda ko'plab davlat korxonalari xususiylashtirildi, bu esa xususiy sektorning paydo bo'lishiga olib keldi.

Davlat korxonalarining rolini saqlab qolish: Xususiylashtirishga qaramay, davlat korxonalari O'zbekiston iqtisodiyotidagi salmoqli ulushini saqlab qoldi.

O'zbekiston Respublikasida Sovet Ittifoqining parchalanishidan so'ng ko'plab korxonalar davlat budjetiga qaramog'ida edi. Mustaqillika endigina erishgan davlat sifatida iqtisodiyotni himoya qilish nuqtayi nazaridan davlatimiz barcha korxonalarni xususiylashtirish imkoniyatiga ega emas edi. Lekin, yillar mobaynida ushbu korxonalarni xususiylashtirish davlat ishtirokidagi korxonalar sonini qisqartirish ehtiyoji kuchayib bordi.



Davlat ishtirokidagi korxonalarining rivojlanish tendensiyasi amalda mulkni xususiylashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish fonida rivojlana bordi. Ushbu jarayon O'zbekistonda ikki bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich 1992-1993 yillarni o'z ichiga qamrab olib, bu davrda asosan maishiy xizmat, savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, qayta ishlash korxonalari mulk shakli o'zgartirilib, mulkning ijara, jamoa, aksiyadorlik shakllari vujudga keldi. Uy-joylar xususiylashtirildi.

Ikkinchi bosqich O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 21-yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida olib borildi. Bu davrda ochiq aksiyadorlik jamiyatlari tashqil etildi va korxonalar aksiyalarini chiqardilar, auksion savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, xususiylashtirishni yoppasiga olib borish ko'zda tutildi.

### 3. O'tishdan keyingi davr (1995-yildan hozirgi kungacha)

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'tish davridan keyingi davrda O'zbekiston hukumati davlat korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan qator islohotlarni amalga oshirdi. Islohotlar doirasida davlat korxonalari ko'proq avtonom va bozorga yo'naltirilgan bo'ldi. Islohotlarga qaramay, davlat korxonalari, ayniqsa strategik sektorlar ustidan sezilarli nazorat saqlab qolindi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘RQ-821-son 09.03.2023 yil, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.03.2023-y., 03/23/821/0132-son; 15.02.2024-y., 03/24/907/0127-son
2. “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni O‘RQ-850-son 03.07.2023, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.07.2023-y., 03/23/850/0439-son
3. Artamonova, K.A., Osipova, I.V., Kushnir, A.M., Ryabinina, E.V., Sadriddinov, M.I. System and engineering solutions in the field of digital transformation of the transport sector // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, 2020, 918(1), 012192
4. Правовые основы экономической деятельности [Электронный ресурс] : учебное пособие / Д. В. Головкина ; Пермский государственный национальный исследовательский университет. – Электронные данные. – Пермь, 2022. – 1,32 Мб ; 143 с
5. Управление бизнесом в цифровой экономике: вызовы и решения: монография / под ред. И.А. Аренкова, Т.А. Лезиной, М.К. Ценжарик, Е.Г. Черновой. – СанктПетербург: СПбГУ, 2019. – 360 с
6. [https://www.wto.org/english/tratop\\_e/statra\\_e/statra\\_info\\_e.htm](https://www.wto.org/english/tratop_e/statra_e/statra_info_e.htm)
7. [www.publicfinanceinternational.org/news/2014/09/ipsas-reforms-proposed-for-state-owned-firms/?utm\\_source=Adestra&utm\\_medium](http://www.publicfinanceinternational.org/news/2014/09/ipsas-reforms-proposed-for-state-owned-firms/?utm_source=Adestra&utm_medium)
8. <https://davaktiv.uz/> ma‘lumotlari asosida